O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT SHAHAR
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-45, E-mail: dav_ekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Shermatov Jaxongir Rasulovich

Sana: 25-01-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

229277 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahrining Mirzo-Ulug‘bek tumanida TS-2 Qorasu-Feruza zonasida issiqlik tarmoqlarini rekonstruksiya qilish uchastka M-0-1, M-0-2.	
Buyurtmachi:	VEOLIA ENERGY TASHKENT MCHJ XK
Bosh loyihachi:	"MUHANDISLIKTARMOQLARI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov asosida aniqlanadi.
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	044166

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2019-yildagi PQ-4543-sonli qarori.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.09.2021-yildagi 594-sonli qarori.

1.3. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasining loyihalashtirish ishlarini amalga oshirish uchun 27.08.2024-yildagi 1726-1726269-197077-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 08.11.2024-yildagi 01-02/14-2691-sonli davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

1.5. “Trade Geo Servise” MChJ tomonidan 2024-yilda berilgan Qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risida xulosasi.

1.6. Buyurtmachi tomonidan 31.10.2024-yilda tasdiqlangan texnik xulosa.

1.7. “Veolia Energy Tashkent” MCHJning 12.08.2024-yildagi TS-2-010-sonli texnik sharti.

1.8. Buyurtmachi va bosh loyihachi o‘rtasida 23.02.2024-yilda tuzilgan VET/24-WR-335-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Ekspertiza ko‘rigiga qadar obyektning ta’mirlash ishlarining loyiha tashkiloti tomonidan nuqson dalolatnomasiga asosan tayyorlangan smeta hujjatlarining me’yoriy mehnat sarfi resurs smetalari bo‘yicha – 3 230 487,580 kishi/soatni va umumiy qiymati 12% QQS bilan

hisoblanganda –3 703,217 ming so‘mni tashkil etadi.

2.2. Obyekt yig‘ma lokal resurslarining ro‘yxati (Ishlatiladigan mashina va mexanizmlar hamda qurilish materiallar ro‘yxati).

2.3. Loyiha (chizma) hujjatlari.

2.4. Buyurtmachi tomonidan 23.02.2024-yilda tasdiqlangan 24-WR-335-sonli narxlar kelishuv bayonnomasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Toshkent shahrining Mirzo-Ulug‘bek tumanida TS-2 Qora-Su-Feruza zonasida issiqlik tarmoqlarini rekonstruksiya qilish ishlarida buzish ishlari, yer qazish ishlari, qavurlarni almashtirish ishlari va boshqa ish turlarini o‘z ichiga oladi.

Ishchilarning bir soat uchun o‘rtacha ish haqi, obektning dastlabki bahosini aniqlashda hudud bo‘yicha quruvchilarning o‘rtacha oylik ish haqining miqdori asosida hisoblanib, me’yoriy mehnat sarfini 1 kishi-soat ko‘rsatkichining joriy narxiga (so‘m) ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari (12%) bilan qo‘shib hisoblanganda asosiy ish haqi uchun xarajat qiymati – 42 072,72 so‘m belgilangan.

3.2. Qurilish materiallari va mahsulotlari uchun sarflanadigan transport xarajatlari miqdori 3 %.

3.3. Jihozlar uchun sarflanadigan transport xarajatlari miqdori – 2%.

3.4. Pudratchining boshqa xarajatlari – 17,27%.

3.5. Obyektlar qurilishini sug‘urtalash xarajatlari – 0,32%.

3.6. Qo‘shilgan qiymat solig‘i – 12%.

3.7. Ta’mirlashning yakuniy xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va SHNQ 4.01.16-09 me’yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Loyihalanayotgan obyekt tasdiqlangan loyihalash topshirig‘iga asosan tashqi isitish tizimi kuzda tutilgan.

4.2. Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 256-sonli qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo‘yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo‘yicha tegishli manfaatdor xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Smeta hujjati loyihachi tomonidan tasdiqlangan. Buyurtmachining qo‘shimcha taklif va e’tirozlari mavjud emas.

5.2. Loyiha hujjatlari Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi, “O‘zbekkiston milliy elektr tarmoqlari” AK, Uzbektelekom” AK, “O‘zgashkLITI” TSHF DUK, “Hududgaz Toshkent shahar” MCHJ, Toshkent shahar obodonlashtirish boshqarmasi bilan kelishilgan.

5.3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-sonli va 2022-yil 20-apreldagi 200-sonli qarorlari talablariga rioya qilinsin.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **3 230 487 580** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

77 985 212 so'mga kamaytirilib, **3 152 502 368** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **2 789 988 755** so'm

Asbob-uskunalar: **24 745 502** so'm

QQS: **337 768 111** so'm

6.1. Smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish jarayonida ekspert tomonidan aniqlangan xato va kamchiliklar loyiha tashkiloti tomonidan o‘zgartirish va tuzatishlar kiritilishi natijasida to‘g‘rilanib qayta to‘ldirildi:

- ekspertiza tekshiruvi hamda smetadagi tuzatishlar bo‘yicha smeta xarajatlarini qayta hisoblash natijasida smeta ko‘rsatgichlari 77 985,212 ming so‘mga kamaytirilib, 12% QQS bilan hisoblanganda 3 152 502,368 ming so‘m qilib belgilandi;
- dastlabki smeta hujjatlari hisob-kitobini kamaytirilishi yoki pasayganligi qurilish me’yorlarini aniqlashtirish orqali qayta hisoblanish natijasida o‘zgartirildi.

6.2. Shartnoma bo‘yicha import texnologik uskunalar va inventarlarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog‘liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o‘tkazilmaydi.

6.3. Buyurtmachi obyekt bo‘yicha o‘rnatiladigan barcha asbob-uskuna, jihozlarning ro‘yxati (texnologik vositalar) va mebel inventar jihozlarni sotib olishida 2021-yil 22-apreldagi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 684-sonli qonun talablariga rioya etilsin.

6.4. Smeta hujjatlariga asosan ta’mirlash ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.5. Buyurtmachi smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong‘in xavfsizligiga rioya qilinsin.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qaroriga asosan Buyurtmachi qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan obyektlar boshlang‘ich qiymati Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy saytiga (stat.uz) qo‘yib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o‘rtacha narxlar hamda o‘rtacha ish haqidan foydalangan holda shakllantiradi. Bundan tashqari, Buyurtmachi pudrat ishlari va qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, resurslarning davriy o‘rtacha narxlarini tasdiqlash huquqiga egaligi belgilangan.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-sonli qarori va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to‘liq rioya qilinsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi PF-220-sonli Farmonining tegishli bandlari talablariga to‘liq rioya qilinsin.

6.8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli Nizomining 3-bob, 29-bandiga muvofiq, ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim etilgan loyiha-smeta hujjatarining to‘liqligi, ma’lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

6.9. Smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan pudratchining boshqa xarajatlari miqdori bo‘yicha shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi.

6.10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishinni ta’minlaydi.

6.11. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi yildagi PQ-332-son Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, obyektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan "Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qaror 2-ilovasining 1-bob, 4-bandiga asosan- "Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta’mirlash bo‘yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari Markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosliligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkaziladi.

7. Xulosalar.

7.1. Toshkent shahrining Mirzo-Ulug‘bek tumanida TS-2 Qorasu-Feruza zonasida issiqlik tarmoqlarini rekonstruksiya qilish uchastka M-0-1, M-0-2 ishlari bo‘yicha tayyorlangan smeta hujjatlari kelgusida ko‘rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va 12% QQS bilan hisoblanganda 3 152 502,368 ming so‘mni (bundan 1 957 459,462 ming so‘mlik buyurtmachining import uskunalari ekspertiza tomonidan ko‘rilmadi) tashkil etadi.

7.2. Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdor buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida shartnoma tuzishga asos bo‘la olmaydi.

7.3. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi 684-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-sonli qarori talablariga rioya etilgan holda hamda SHNQ 4.01.16-09 me’yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o‘tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Bosh ekspert: Mardonov Shohruh Isroil O‘g‘li.

Ishtirokchi ekspertlar: Olxovskaya Viktoriya Kamilovna, Narmuxamedov Ilxom Nigmatovich